



BUYUK IPAK YO`LNING SHIMOLIY TARMOG`IDA SAVDO IQTISODIY ALOQALAR.

(QADIMGI DAVR MISOLIDA)

BuxDPI Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti tyutori

Ibrohimov Nozimjon Ixtiyorovich

BuxDPI tarix ta`lim yo`nalishi 3TAR22 guruh talabasi

Isoyeva Ismigul Iso qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buyuk ipak yo`li vujudga kelishi davlatlar va xalqlar o`rtasida savdo-sotiq, madaniy va elchilik aloqalari rivojlanishiga xizmat qildi. Ayniqsa, savdo – sotiq ishlari ancha rivoj topaganligi manbalar asosida tahlil qilingan. Maqolada Savdogarlar vositachiligi natijasida har bir davlat o`zining yetishtirgan mahsulotlari va tovarlarini ayriboshlaganlari, Masalan, Xitoydan choy, ipak, chinni buyumlar va boshqa mahsulotlar keltirilgan bo`lsa, O`rta Osiyo davlatlari o`zining chopqir otlari, sopol buyumlari, bog`dorchilik va dehqonchilik mahsulotlari bilan shuxrat qozonganligi hamda boshqa davlatlar bilan olib borilgan aloqalar (Qadimgi davr misolida) manbalar asosida izchil tahlil qilingan.

Kalit so`z: Ipak, samoviy otlar, savdo-sotiq, shoyi, chinni, sopol, bekat, tuya, tarmoq, savdogar, ayriboshlash, karvonsaroy, karvon, elchi, Chjan Szyan, Dovon, Qang`, L`al.

Buyuk ipak yo`li to`g`risida fikr yuritar ekanmiz, bu qadimiy yo`lning necha asrlar davomida ne-ne mamlakatlar va xalqlarni bir-biriga bog`lash, aloqalarini mustahkamlashdagi mislsiz xizmatini aloxida ta`kidlab o`tish joiz bo`ladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 14-15- may kunlari Xitoy Xalq Respublikasi poytaxti Pekin shahrida bo`lib o`tgan «Bir makon, bir yo`l » xalqaro forumida « « Bir makon bir yo`l » - manfaatlarimiz mushtarak » mavzusida so`zlagan nutqida « Biz qayta tiklayotgan Buyuk ipak yo`lida Samarqand, Buxoro, Xiva kabi bir necha ming yillik tarix va boy madaniyatga ega bo`lgan shaharlar joylashgan », deb e`tirof etgan edi.

O`zbekistonning birinchi prezidenti Islom Karimov dunyo ahli oldida « Buyuk ipak yo`li »ni qayta tiklash g`oyasini ilgari surdi. Va bu yo`lda behad ulug` tashkilotchilik qildi. Xususan, Islom Karimovning 1999 yil aprel oyida AQSHga qilgan rasmiy safari chog`ida



Amerika tomonining O`zbekiston bilan har tomonlama iqtisodiy, madaniy, savdo-sotiq aloqalarini bog`lashga, xususan Buyuk ipak yo`li faoliyatini tiklashga faol ko`maklashishga tayyor ekanligini bildirganligi muhim ahamiyatga ega bo`ldi. Negaki O`zbekiston qadim davrdan boshlab davlatlar iqtisodiy manfaatlari kesishgan chorraxada joylashganli, xususan buyuk ipak yo`lining kesishgan nuqtalari aynan O`zbekistondan o`tganligi bilan izohlanadi.

Buyuk ipak yo`li tushunchisini birinchi bo`lib fanga taniqli nemis olimi Fon Rixtgofen olib kirgan. U XIX asrning 70-yillarida yozgan «Xitoy» nomli klassik asarida bu termini chuqur ilmiy asoslab berdi.

Ma`lumki, Xitoyning Sian shahridan boshlangan Ipak yo`li Lanjou orqali Dunxuanga (Sharqiy Turkiston) kelib, bu yerda u ikkiga ajraladi. Ipak yo`lining janubiy tarmog`i Taklamakon sahrosi (Mo`g`iliston) orqali Xo`tanga, undan Yorkentga kelib, undan Balxga tomon o`tadi. Balxda yo`l yana uch tarmoqqa ajraladi. G`arbiy tarmog`i Marvga, janubiy tarmog`i Hindistonga, shimoli tarmog`i Termiz orqali Darbent, Nautaka va Samarqandga tomon yo`naladi. Ipak yo`lining Shimoliy tarmog`i (Beydao) G`arbiy Chesh hokimi qarorgohidan boshlanib, «Shimoliy tog`» - Tyan-Shanning Sharqiy tizmalari yonbag`irlari bo`ylab Qashqadaryo oqimi yo`nalishida Qashg`arga, Tyan-Shan tog`idagi dovoni orqali Davan (Farg`ona)ga, keyin Qang`ga, Yansay va Ansiga (Yansiga) olib kelgan. Ipak yo`lining asosiy karvon yo`llaridan tashqari, ichki savdo yo`llari ham mavjud edi.

Vatanimiz sarhadlari ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy yuksalishining Buyuk ipak yo`li bilan bevosita bog`liqlik jihatlari juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Yunon-Rim olimlari Gerodot, Ktesiy, Arrian ma`lumotlariga, Eron mixxat yozuvlariga asoslanib fikr yuritadigan bo`lsak, mil.av. IV asrda O`rta Osiyo hududlarida sug`orma dehqonchilik madaniyati, hunarmandchilik, chorvachilik, tog`-kon ishlari ancha rivoj topgan.

Mil. avv II asrdan boshlab Qashg`ardan Davanga shimoliy yo`ldan karvon yo`li harakati boshlanadi. Bu yo`ldan ipak va boshqa mahsulotlarning xalqaro tranzit savdosi amalga osha boshlaydi. Bu paytga kelib Davan aholisi ko`paya boshlaydi va ko`plab mustahkamlangan aholi manzilgohlari paydo bo`ladi. Savdo yo`lida Davan muhim



ahamiyatga ega bo'lib boradi. Tadqiqotchilarning fikricha, Yassa va Qoradaryo vohalarida ko'pgina qal'alar savdo yo'lini qo'riqlash maqsadida barpo etiladi.

Mil.av. II asr boshlarida Davan va Qang` davlatlariga tashrif buyurgan Xitoy elchisi va sayyohi Chjan Szyan safaridan so'ng Xitoy bilan O`rta Osiyo davlatlari o`rtasidagi diplomatik va sado-sotiq aloqalari yangi bosqichga ko'tariladi. Elchining bu yurtda ko`rgan-kechirganlari, ayniqsa, uzumchilik, vino-tayyorlash, rangli shishalar ishlab chiqarish, zargarlik, zotdor uchqur otlar Xitoy hukmdorlarini qiziqtirgan. Bu esa ikki o`rtadagi aloqalarga keng yo`l ochgan. Xitoy O`rta Osiyoning zotdor otlari, rangli shishalari, zargarlik mollari, la`liga xaridor bo`lsa, ayni chog`da Xitoydan ko`proq ipak va ipak mollari, chinni buyumlar, choy mahsulotlari keltirila boshlagan. Shuningdek, Yaponiyadan guruch, Hindistondan ip-gazlama, ziravor va dorivor mahsulotlar, mushk anbar va shu kabi narsalar keltirilgan. Ayni chog`da o`zbek diyorida bu mamlakatlarga qishloq xo`jalik mahsulotlari, mevalar, chorva mollari, otlar, gilamlar, zargarlik mahsulotlari, nafis junli matolar chiqarilgan. O`rta Osiyo hukmdorlari buyuk ipak yo`lida savdo karvonlarining tinchligi, xavfsizligi va ularning bexatar, muntazam qatnovini ta`minlash borasida ham doimiy chora-talbirlar ko`rib borganlar. Shu maqsadda kerakli nuqtalarda, aholi siyrak bo`lgan joylarda karvonsaroylar, yemakxonalar, barpo qilingan, suv oladigan quduqlar qazilgan, chor atrofi shinam bino shakliga keltirilib, qurilgan rabotu-sardobalar tiklangan.

Xitoy manbalari qadimgi Farg'onada dehqonchilik madaniyati yuqori darajada rivojlanganligini isbotlaydi. Xitoyliklarni ayniqsa, o'zlari uchun notanish bo'lgan beda va uzum hayratga solgan. Manbalarda yana shunday ma'lumot bor: «Xitoy elchisi urug' keltirdi, shunda osmon farzandi (Xitoy imperatori) unumdor yerga beda va uzum ekdi». Davanliklarning bog'larida uzumdan tashqari anor, o'rik va boshqa mevali daraxtlar ko'p bo'lgan. Xitoy tarixchilari bu mevalarning Xitoyda paydo bo'lishini Davan bilan bog'laydilar.

Xitoy manbalari, shuningdek, qadimgi Farg'ona chorvachiligining o'ziga xos tomoni bo'lgan yilqichilikning yuqori darajada rovojlanganligi haqida ham ma'lumotlar beradi. Davan davlati antik davrda mashhur zotdor otlari bilan shuhrat qozongan edi. Manbalardan ma'lum bo'lishicha, ularni yetishtirish bilan o'troq aholi shug'ullangan. «Davanda yaxshi



otlar bo'lib, ular Ershi shahridadir, otlarni yashiradilar va Xan elchisiga berishga rozi bo'lmaydilar». Davanning mashhur «samoviy otlari» tasvirlari tushirilgan qoyatosh suratlari bizning kunlarimizgacha saqlanib qolganligi buning amaliy isbotidir.

Xususan, O'shdan 8 km uzoqlikdagi Ayrimchatovning qoya adirlarida 30 ta chiroyli zotdor otlarning tasvirlari bor. Xuddi shunga o'xshash tasvirlar Marhamat yaqinidagi Aravon qoyasidan, Navqat vohasi va Obishirsoydan ham topilgan. Bu tasvirlar Davan o'zining samoviy otlari bilan qadimdan mashhur bo'lganligini tasdiqlabgina qolmay, farg'onaliklarning yuksak san'at sohiblari bo'lganliklaridan ham dalolat beradi. Manbalarning guvohlik berishicha, qo'shni davlatlar, xususan, Xitoy imperatorlari Davan otlarini nihoyatda qadrlaganlar. Xitoy davlati bu otlarni qo'lga kiritish uchun Davan davlatiga bir necha bor harbiy yurish qilganlari ham manbalarda qayd etib o'tilgan. Davan davlati hukumdorlari vatanini dushman hujumidan saqlab qolish uchun Xitoy qo'shinlari bilan sulh tuzishga va sulh natijalariga ko'ra 30 ta zotli otlarni berishga majbur bo'lganligini xitoy tarixchilarining manbalaridan bilib olishimiz mumkin. Buyuk ipak yo'lining vujudga kelishi bilan har bir davlat o'z davlati hududidan o'tishiga intilgan. Buyuk ipak yo'li bo'yida shaharlar, karvonsaroylar paydo bo'la boshlaydi. Bunga sabab savdo-sotiqni rivojlantirish, o'zaro elchilik va diplomatic munosabatlarni yo'lga qo'yishda aynan Buyuk ipak yo'lidan foydalanganlar. Shuning uchun ham Buyuk ipak yo'li kengayib, rivojlanib borishi natijasida 12ming kilometrdan uzoq masofalarga cho'zilib, sharq va g'arb mamlakatlarini bir-biri bilan iqtisodiy, madaniy va siyosiy jihatdan bog'lashga xizmat qilgan. Buyuk ipak yo'lida savdo-sodiq ishlarini olib boruvchi savdogarlar bir vaqtning o'zida elchi va diplomat vazifasini bajarganligi qadimgi davr savdogarlarining iqtisodchi va dono siyosatchi bo'lganligini asoslab o'tishimiz mumkin. Fikrimizning so'ngida shuni aytishimiz mumkinki, Buyuk ipak yo'li nafaqat davlatlar o'rtasidagi munosbatlar, balki insoniyat, jamiyat rivojida muhim asos bo'lib xizmat qilganini tarixiy dalillar bilan isbotlab berdi. Bu maqola Buyuk ipak yo'li mavzusi bo'yicha tadqiqotimizning kichik bir ko'rinishi hisoblanadi va yangi-yangi tadqiqotlarimiz uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Sh.Mirziyoyev*. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent. O'zbekiston. 2017



2. *Sh.Mirziyoyev*. Milliy taraqqiyot yo'limizni qatiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Toshkent. O'zbekiston.2018
3. *I.Karimov*. Yuksak manaviyat yengilmas kuch. T:Manaviyat;2008
4. *I.Karimov*. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T:1998
5. *I.Karimov*. Savdo yo'lidan Ipak yo'lini tiklash sari. Asarlar. 2 jild. - Toshkent, "O'zbekiston", 1996. 366-368-betlar.
6. *Sagdullayev A.S.* O'zbekiston tarixi, I kitob [Matn] Toshkent: «Donishmand ziyosi» МЧЖ, 2021. - 624 b.
7. *Мамбобаев Б.Х.* Ўзбек давлатчилигининг илк босқичларида Фарғона. //Ўзбек давлатчилиги тарихида қадимги Фарғона. Маъруза матнлари. – Наманган, 2001. – 23–40 бб.
8. *Шониёзов К.Ш.* Қанғ давлати ва қанғлилар. – Тошкент: Фан, 1990.
9. *Кобзева О.П.* Великий шелковый путь: история и современность. - Ташкент: «Фан», 2005.
10. *Кобзева О.П.* История изучения Великого шелкового пут второй половине XIX - начале XX вв. - Ташкент. "Зар қалам", 2006.
11. *Mavlonov O`.* Markaziy Osiyoning qadimgi yo'llari: shakllanishi va rivojlanish bosqichlari. - Toshkent: «Akademiya», 2008.
12. *Mavlonov O`.* *Mahkamova D.* Madaniy aloqalar va savdo yo'llari. -T o s h k e n t: «Akademiya», 2004.
13. *Ртвеладзе Э.В.* Великий шелковый путь. - Ташкент. «Шарк», 1999.
14. *Хожайев А.* Buyuk ipak yo`li: munosabatlar va taqdirlar. - Toshkent: O`zMU, 2007.
15. *Eshov B.J., Odilov A.A.* O'zbekiston tarixi. I jiid. - Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2014.
16. *Sagdullaev A.* Qadimgi O`zbekiston ilk ezma manbalarda. T. 1996.
17. *Azamat Ziyov.* O'zbek davlatchiligi tarixi. T. Sharq. 2000



ILMIY NASHRLAR MARKAZI